(10). Muhamedova S.X. O‘zbek tilida yo‘nalish harakat fe’llarining predikativligi va valentligi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref., Toshkent, 1999, 22-bet.
(11). Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1973, 284-bet.
(12). Makhmudov D.R. Semantic and Cognitive Patterns of Directional Motion Verbs in English and Uzbek: A Comparative Typological Investigation//Scientific and Innovative Research in the Social and Humanitarian Sphere. 2026, vol. 3, № 8, p. 149–153.
(13). Makhmudov D.R. Lexicographic Description and Comparative Analysis of Directional Motion Verbs in English and Uzbek Dictionaries. Pedagogical Sciences and Teaching Methods. 2026.

Raxmatova Rayhona Mirzohid qizi (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi tayanch doktoranti;
E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

HALIMA AHMEDOVANING “KATTA QUSH” NOMLI HIKOYASIDA INSONPARVARLIK, MEHR VA SOG‘INCH MOTIVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Halima Ahmedovaning “Katta qush” nomli hikoyasidagi badiiy-g‘oyaviy xususiyatlar tahlilga tortilgan. Hikoyadagi inson va tabiat munosabati, insonparvarlik, mehr-shafqat, shuningdek, bolalar ruhiyatining badiiy talqini kabi masalari yoritilgan. Hikoyadagi katta qush obrazi esa, ramziy timsol sifatida talqin qilinadi va erkinlik, poklik g‘oyalarini ifodalashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *qish, ov, katta qush, ma’yus ko‘zlar, shifokor, Sharif aka, Shokirjon, geografiya, qush tulumi, sog‘inch.*

Рахматова Райхона Мирзохид кизи (базовый докторант кафедры литературы периода независимости и теории литературы Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова; E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

МОТИВЫ ГУМАНИЗМА, МИЛОСЕРДИЯ И ТОСКИ В РАССКАЗЕ ХАЛИМЫ АХМЕДОВОЙ “БОЛЬШАЯ ПТИЦА”

Аннотация. *В данной статье анализируются художественно-идейные особенности рассказа Халимы Ахмедовой «Большая птица». Особое внимание уделяется взаимоотношениям человека и природы, мотивам гуманизма и милосердия, а также художественной интерпретации детской психологии. Образ большой птицы рассматривается как символический образ, воплощающий идеи свободы, чистоты и духовной нравственности.*

Ключевые слова: *зима, охота, большая птица, грустные глаза, врач, Шариф-ака, Шокиржон, география, чучело птицы, тоска, гуманизм, милосердие.*

Raykhona Mirzokhid qizi Rakhmatova (PhD Researcher, Department of Independence Period Literature and Literary Theory, Samarkand State University named after Sharof Rashidov;
E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

THE MOTIFS OF HUMANISM, COMPASSION, AND LONGING IN HALIMA AHMEDOVA’S SHORT STORY *“THE BIG BIRD”*

Annotation. *This article analyzes the artistic and ideological features of Halima Ahmedova’s short story “The Big Bird”. It examines the relationship between humans and nature, the themes of humanism and compassion, as well as the artistic interpretation of children’s psychology. The image of the big bird is interpreted as a symbolic representation that serves to express the ideas of freedom, purity, and spiritual nobility.*

Keywords: *winter, hunting, big bird, sorrowful eyes, doctor, Sharif Aka, Shokirjon, geography, bird specimen, longing, humanism, compassion.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida salmoqli ijod qilayotgan yozuvchilar juda ko‘p. Hikoyalardagi mavzu va g‘oyalar turli ijtimoiy muammolarni ham, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ham, qolaversa, davr muammolarini ham yoritishga qaratilgani bilan bir-biridan farq qilib turadi. Ular orasida ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar g‘oyasiga qaratilgan hikoyalar alohida ajralib turadi. Nasrda ham barakali ijod qilayotgan shoira va yozuvchi Halima Ahmedovaning hikoyalari aynan shunday xususiyatlarni ko‘rsatib bera olishi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Yozuvchining qator hikoyalarida, masalan, “Umid darichasi”, “Yovvoyi tanovar”, “Katta qush” kabi hikoyalarida insoniy qadriyatlarga alohida urg‘u berilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ayniqsa, maqolada tahlil qilingan “Katta qush” nomli hikoyasi fikrimizning yaqqol namunasi bo‘la oladi. Hikoya obrazlar tizimi, badiiy yechimi va falsafiy mazmuni bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Ayniqsa, fojiaviy yakun o‘quvchini mushohada qilishga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Shoira Halima Ahmedova o‘zining she’rlari bilan adabiyotshunos va munaqqidlar orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning poetikasini tahlil qilgan izlanuvchi va tadqiqotchilar orasida shoiraning badiiy tafakkuri, obrazlar tizimi, shuningdek falsafiy mushohadalarga alohida e’tibor qaratilgan. H.Ahmedovaning she’riyati M.Vahobova, N.Salohiddinova, G. Rustamova, R.Jumanazarova kabi tadqiqotchilar tomonidan turlicha tahlil va talqin qilingan. Halima Ahmedova nasrga ham qo‘l urib, keyingi yillarda qator hikoyalar yozmoqda. Uning hikoyalari va she’rlari jamlanib “Shudringli parchalar” nomi bilan o‘quvchilarga taqdim qilingan. Hozirgi kunda izlanuvchilar tomonidan ushbu hikoyalr tahlil qilib o‘rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Ushbu maqolada asosiy metod sifatida tahliliy-yondashuv metodi qo‘llaniladi. Halima Ahmedovaning “Katta qush” nomli hikoyasi mazmuniy, psixologik va badiiy tahlil asosida o‘rganiladi. Qolaversa, germenevtik tahlil metodidan ham maqolada foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hikoya markazida qizcha obrazi turadi. Hikoya muallifi aynan shu qizchaning tilidan voqealarni bayon qiladi. Bu orqali muallif qahramonlar ruhiyati va his-tuyg‘ularini o‘quvchiga chuqurroq singdirishga harakat qiladi.

Hikoyaning qish manzarasi bilan boshlanishi va aynan Buxoro ko‘chalarida sodir bo‘lishida ham ramziylikni ko‘rish mumkin. Hikoyaning Buxoro ko‘chalarining tasviri bilan boshlanishida yozuvchining tug‘ilib-o‘sgan diyoriga ishora borligi namoyon bo‘lsa, uning ta’rifidan Buxoroga bo‘lgan cheksiz muhabbati ko‘rinadi:

“Buxoroning qishi juda shaffof keladi. Bolaligimni eslasam, ko‘proq oppoq qorlarning charx urib yog‘ishi, qorbo‘ron o‘ynab to‘ymagan damlarim xotiramda tiklanadi… O‘sha kuni ertalabdan yoqqan qor peshinga boib bibim bizga tikkan ko‘rpadek qalinlashdi…” [141-b.].[1]

Qizchaning ta’rifi bilan aytganda, “*…qish kirib kelishi bilan omborxonada eski choponga o‘rab qo‘yilgan dadamning ov miltig‘iga ish topilardi. Dadam ovni yaxshi ko‘rardi. Har gal ovdan o‘lja bilan qaytardi…*” [141-b.].[2] Bu safar ham qizchaning otasi ovga ketib quruq qo‘l bilan qaytmaydi. Ovdan o‘zi bilan birga noodatiy, ammo yaralangan qushni olib keladi. Qush butun oila a’zolarini hayratda qoldiradi. Uning juda kattaligi, uzun tumshug‘i, oppoq qanotlari, ayniqsa, qanotining ba’zi joylaridagi kimdir chizib qo‘ygandek g‘alati naqshlari barchani hayron qoldiradi. Oila a’zolarining hammasi mehribon va rahmdil edi. Buni ularning qushga nisbatan qilayotgan xatti-harakatlaridan ko‘rish mumkin. Otasining ov paytida yarador qushga shunchaki beparvo bo‘lmay o‘zi bilan birga olib kelgani, onasining rahmdillik bilan qushning singan oyog‘iga malham surtib bog‘lab qo‘ygani, bolalarning, ayniqsa, qizchaning qushga mehri bo‘lakchaligi, uni o‘z oila a’zolaridek qabul qilishlari bu oilada mehr-muhabbatning ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, ko‘rsatilgan yordamdan ko‘ngli to‘lmay, ertasiga qishloq shifokorini uyga boshlab kelgani va unga qo‘shimcha yordam ko‘rsatgani, maktabdagi geografiya o‘qituvchisidan qush haqida ma’lumot so‘rab, bilganlaridan xabardor qilishini iltimos qilishi ham qushga nisbatan befarq emasligini ko‘rsatadi. Kunlar o‘tib qushning oyog‘i butunlay tuzalib bemalol yuradigan bo‘lib qolgandan keyin ham ota qush haqida o‘ylashda davom etadi. Bir kuni uyga shoshib keladi-yu qushni olib ketadi. Uydagilari bergan savolga Sharif akaning shaharda tanishi shifokori borligini, uni butkul davolashga ko‘maklashmoqchi ekanligini aytib javob qiladi. Garchi uyidagilari, ayniqsa, qizcha qattiq qarshilik qilsa ham otasi qushga yaxshi bo‘lsin deb uni olib ketadi. Shu voqeadan keyin hech kim qushni ko‘rmaydi. Qizcha ham ancha vaqt o‘ylab siqilib yuradi. Keyinchalik, maktabdagi darslar sabab biroz chalg‘igandek bo‘ladi. Bir kuni zoologiya fanidan o‘qituvchi o‘quvchilarga qush tulumi yasab kelishni vazifa qilib beradi. Sharif akaning o‘g‘li Shokirjon olib kelgan qush tulumi hammaga yoqadi, hatto o‘qituvchi uni maqtaydi ham. Ammo, qizchaning e’tiborini boshqa narsa o‘ziga tortadi:

“…Negadir qushning qanotlari menga tanishdek edi. Yaqinroq borib, zingil solib qaradim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, bu patlar katta qushning naqshli patlari edi.

Shokirjonga qarab:

–Sen buni qayerdan olding? – deb so‘radim. Uning qo‘shnisi Ziyoda gapga qo‘shildi:

–Voy, ular yaqinda juda katta qushni so‘yishdi. O‘ziyam qo‘ydan katta, go‘shtidan bizga ham berishdi. Judayam shirin ekan…

Shokirjon ham buni tasdiqladi.

---

[1] Ahmedova H. Shudringli parchalar. Toshkent, “Adabiyot”, 2024.

[2] Ahmedova H. Shudringli parchalar. Toshkent, “Adabiyot”, 2024.

Bilmayman, o‘sha paytda osmon katta tog‘dek yorilib boshimga qulagandek bo‘ldi. Sumkamni oldim-u, ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘lagancha darsdan otilib chiqib ketdim…yig‘lab uyga kirib kelganimda dadam onam bilan so‘rida choy ichib o‘tirardi. Dadamga ovozim boricha baqirdim:

–Men sizga katta qushni olib ketmang, degan edim-ku. Dadam barcha voqeani mendan eshitib jahl va nafrat bilan Sharif amakimning yoniga jo‘nadi. Shu ketganicha ertasiga ertalab bir alfozda uyga kirib keldi…” [145-b.].[1] Sharif amaki, qizchaning otasiga noo‘rin, shu bilan birga, biroz nafsoniyatiga tegib gapiradi, tabiatan qiziqqon bo‘lgan qizchaning otasi shu joyning o‘zida Sharif akani rosa do‘pposlaydi. Sharif amaki esa mahalla nozirini chaqirib, qizchaning otasini berib yuboradi. Shu bilan qizchaning oilasi va Sharif amaki oilasi yuzko‘rmas bo‘lib ketishadi. Amakining o‘g‘li Shokirjon esa chumchuq bolasini olaman deb daraxtdan yiqilib, bir umrga nogiron bo‘lib qoladi. Buni ko‘rganlar “xuddi qushdek uchib tushdi o‘ziyam” deyishgan ekan qayg‘u bilan. Oradan yillar o‘tib, qizcha ulg‘ayib, yoshi o‘tib qolganini, ammo shunda ham o‘sha katta qushni unutmagani, unuta olmaganini aytib, o‘z hikoyasini tugatar ekan, o‘quvchilarga savol bilan murojaat qiladi: “…Vaqtning goh tiniq, goh loyqa daryolari oqib o‘tdi. Yillar ko‘zlarimni xiralashtirdi, qulog‘imni berkitdi. Yuragimdagi sog‘inch cho‘g‘larini alangalatdi. Men hamon o‘sha katta qushni sog‘inaman. Ba’zan tomlarda uning mehriga tashna, sog‘inchga to‘la ovozini eshitganday bo‘laman. Sizga ham shu ovoz eshitiladimi, Odamlar?!”

Savol o‘quvchini o‘ylash va mushohada qilishga undaydi. Hikoya mazmuni, uning g‘oyasi haqida fikr yuritishga majbur qiladi. Kitobxon o‘z-o‘zidan insonlarning tabiatga, jnzotlarga nisbatan shafqatsiz, e’tiborsiz bo‘lishining sabablari, insoniy hislarga darz ketib borayotgani haqida fikr yurita boshlaydi.

Hikoyaning yana bir asosiy g‘oyalaridan biri insonparvarlikdir. Yarador katta qushning davolanishi, unga mehr ko‘rsatilishi va oila a’zolarining uni asrab-avaylashi insoniylikning yorqin namunasi sifatida gavdalanadi. Qizaloqning katta qushga o‘zgacha mehr berib, uning tuzalishi uchun qayg‘urishi hikoyaga katta ma’no bag‘ishlaydi. Bu jarayonda sof va beg‘araz mehrning asl mohiyati ko‘rinadi. Muallif bolalar qalbi orqali rahm-shafqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy vaziyat yaratadi. Biroq hikoya faqat mehr haqida emas. Mazkur hikoya orqali insonlarning tabiatga nisbatan mas’uliyati masalasini ham ko‘tariladi. Qushning, keyinchalik, so‘yib yuborilgani haqidagi xabar qizaloq uchun og‘ir ruhiy zarba bo‘ladi. U qushni jonli mavjudot sifatida qabul qilgan bo‘lsa, ayrim kattalar unga oddiy o‘lja sifatida qarashadi. Bu qarama-qarshilik asarning dramatik kuchini oshiradi. Muallif shu orqali tabiatga nisbatan loqaydlik va shafqatsizlikni tanqid qiladi.

O‘quvchini o‘ylashga va mushohada qilishga undaydigan xususiyatlar hikoyada talaygina. Masalan, nega oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin, qush deyarli sog‘ayib, butun oila a’zolariga o‘rganib ketganidan keyin ham otaning qushni aynan Sharif amakining shahardagi shifokorlarga olib borib, butunlay tuzattirmoqchi ekanligi kishini o‘ylantirib qo‘yadi. Qizchaning otasi jasur, mehribon bo‘lishiga qaramay, sodaligi ham bor. Bo‘lmasa, deyarli tuzalgan, o‘zlari ham o‘rganib, mehr bergan jonzotlarini boshqa birov davolayman desa osongina ishonib ketishi mumkin emas. Ammo otasiniing soddaligidan foydalangan Sharif amaki qushni olib ketib, shunchaki o‘lja sifatida so‘yib yuboradi. Hikoyaning asl fojiaviyligi ham ana shunda. Kishilarning tabiatga, jonzotlarga bemehrlik va sovuqqonlik nazari bilan qarashida. Sharif amakining qilgan ishi ham javobsiz qolmagan. O‘z farzandining umrbod nogiron bo‘lib qolishi va katta qushning o‘ldirib yuborilishi o‘rtasidagi aloqadorlik shunda ko‘ringan.

Hikoyadagi kishini o‘yga toldiradigan yana bir jihat, qushning ma’yus nigohlari va kishining yig‘lashiga o‘xshab nola qilib sayrashi. Qushning kelgan paytdagi nigohlari ketar chog‘ida ham o‘zgarmaydi. To‘g‘ri, oila a’zolari qushga bo‘lakcha mehr ko‘rsatishadi. Uni o‘z oila a’zolaridek ko‘rishadi. Hatto, onasining otasiga hazillashib, tez-tez “*qush sizning katta o‘g‘lingiz*” deyishi bu fikrning isboti bo‘la oladi. Shunday bo‘lsa-da, qush o‘z oilasini, erkinligini qo‘msardi. Buni ko‘chada qushning boshini silab o‘tirgan devona amakining gaplaridan bilish mumkin:

“…Bir payt qarasam, qishloqdagi devona amaki qum ustida o‘tirib, qushning boshini silayotgan ekan. Yugurib borib:

– Bizning qushimizga qo‘lingni tekkizma, – dedim. Devona menga ma’yus qarab qo‘ydi-da:

– Ko‘rmayapsanmi, u onasini qishlog‘ini sog‘inibdi, – dedi va yana qushning boshini silay boshladi. Qush ham yaqin qarindoshini topgandek, unga mehr bilan qarab turardi. Devona ketgach, qushning yoniga bordim. Uning ko‘zlari atrofi nam edi. Men o‘shanda qushning yig‘lashini ilk bor ko‘rgan edim” [144-b.].

[1] Ahmedova H. Shudringli parchalar. Toshkent, “Adabiyot”, 2024.

Hikoyaning so‘nggi jumlasi esa kishini tabiatga beparvo bo‘lmaslikka, jonzotlarga mehr ko‘rsatishga chorlaydigandek. Mehr, jasorat, insonparvarlik kabi tuyg‘ularning inson qalbida qanchalik jo‘sh urayotganligini o‘ylash va anglash uchun turtki vazifasini bajargan. Bulardan xulosa olish esa o‘quvchining o‘ziga havola qilingan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recomendations). Halima Ahmedovaning “Katta qush” hikoyasi yosh kitobxonlarni ezgulikka, mehr-shafqatga va tabiatni asrashga undaydigan hikoyalar qatoriga kiradi. Hikoyada ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham adabiyotshunoslar va o‘quvchilar tomonidan qizg‘in mushohadalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Hikoyani o‘qigan kitobxon har bir tirik mavjudotning yashashga haqqi borligini his qiladi. Muallif o‘quvchini bevosita nasihat qilish yo‘li bilan emas, balki qahramon kechinmalari orqali tarbiyalaydi. Bu esa asarning badiiy qimmatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Halima Ahmadovaning «Katta qush» hikoyasi o‘zbek adabiyotining e’tiborga molik namunalaridan biridir. Asarda qizaloq va yarador qush o‘rtasidagi samimiy munosabat orqali insonparvarlik, rahm-shafqat, tabiatga mehr va mas’uliyat kabi umuminsoniy g‘oyalar yoritilgan.

Hikoyada qush obrazi nafaqat voqealar markazidagi qahramon sifatida, balki erkinlik, hayotga intilish, sog‘inch va tabiiy muhit bilan uyg‘unlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holati orqali inson qalbidagi ezgulik, mehr va hamdardlik tuyg‘ularining shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Hikoyaning fojiaviy yakuni esa inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqida jiddiy mushohada yuritishga undaydi. Shunday qilib, “Katta qush” hikoyasi nafaqat badiiy jihatdan mukammal asar, balki yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, ularda ezgulik va mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim adabiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Karim B. Ruhiyat alifbosi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
(2). Karimov H. Kechagi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70–80-yillar). Toshkent, “Yangi nashr”, 2018.
(3). Ahmedova H. Shudringli parchalar. Toshkent, “Adabiyot”, 2024.
(4). Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2016, 288-bet.
(5). Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “Sharq”, 2002, 264-bet.
(6). ziyoNet kutubxonasi ziyouz.uz

Ashurov Baxshillo Sharopovich (NavDU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

SHOIR IJODINING RANG-BARANGLIGI

Annotatsiya.*Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan Shavkat Rahmon ijodining ba’zi qirralari haqida mulohazalar yuritilgan. Bunda shoirning zamondoshlari, tadqiqotchilar va adabiyotshunos olimlarning fikrlariga tayanilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik, ma’naviyat, shoir, manzara, ilhom, Vatan, oddiy, millat, isyon, lola, qudrat, haqiqat, mo‘jiza.*

РАЗНООБРАЗИЕ ТВОРЧЕСТВА ПОЭТА

Аннотация. *В статье даны размышления о некоторых гранях творчества Шавката Рахмона, творившего во второй половине XX века. Автор опирается на мнения современников поэта, исследователей и ученых – литературоведов.*

Ключевые слова: *независимость, духовность, поэт, пейзаж, вдохновение, Родина, простой, национальность, бунт, тюльпан, могущество, правдивость, чудо.*

THE DIVERSITY OF THE POET’S CREATIVE WORK

Annotation. *The hereby article presents some thoughts about the literary works of Sh.Rahmon, created at the end of 20th century. While writing the article we were guided by the opinions and considerations of the poet’s contemporaries, researchers and literary men.*

Keywords: *independence, spirituality, poet, landscape, inspiration, Homeland, plain, nationality, revolt, tulip, power, truthfulness, miracle.*

Kirish. “Shoir” so‘zi “vijdon” atamasining sinonimiga o‘xshaydi. Shu bois vijdonga xiyonat qilgan shoir yaxshi she’r yoza olmaydi. Yaxshi shoirlar hamisha vijdon ko‘zgusiga tik boqib yashaydilar. Shoir umri yillar bilan o‘lchanmaydi, balki u yaratgan asarlar va ularning umrboqiyligi bilan o‘lchanadi. XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldirgan iste’dodli shoirlardan biri Shavkat Rahmondir.